


2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 - yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida 3735 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1154 mingga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 32122 ta (14,3 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 4023 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 32122 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,3%ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,8 % savdo, 20,9 % sanoat, 8,8 % qurilish, 6,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 24,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, mbirlik		01.08.2019 yil	
	01.08.2018 yil	01.08.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %

Jami	28099	32122	114,3	100
-------------	--------------	--------------	--------------	------------

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1960	2046	104,4	6,4
Sanoat	5631	6711	119,2	20,9
Qurilish	2428	2818	116,1	8,8
Savdo	7270	8604	118,3	26,8
Tashish va saqlash	1050	1249	118,9	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1322	1506	113,9	4,7
Axborot va aloqa	560	596	106,4	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	612	727	118,8	2,3
Boshqa turlari	7266	7865	108,2	24,4

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10542 ta), Asaka (2906 ta), Andijon (2267 ta) va Shahrixon (2261 ta) va Oltinko'l (1688 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Xonobod shahri (502 ta), Bo'z (753ta),ta) hamda Ulug'nor (616) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30659 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4071 ta (13,3 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,4 % savdo, 20,9 % sanoat, 8,8 % qurilish, 6,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10181 ta), Asaka (2874 ta), Andijon (2084 ta) va Shahrixon (1989 ta), Oltinko'l (1643 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Xonobod shahri (497 ta), Bo'z (745 ta) hamda Ulug'nor (604) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyul oylarida 3735 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1154 taga ko'pdir.

Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1142 ta), Asaka (327 ta), Shahrixon (290 ta), Andijon (260 ta) va Izboskan (220 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Xonobod shahri (67 ta), Bo'z (83 ta) hamda Ulug'nor (48 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo(1420 ta), sanoat (1031 ta), qurilish (416 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (146 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (73 ta), axborot va aloqa (62 ta) hamda tashish va saqlash (131 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yil 1-avgust holatiga 25900 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6219 ta, oilaviy korxonalar –672 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18435 ta va boshqalar 574 tani tashkil etgan.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 267 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 75 taga yoki 39,1 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 267 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Andijon shahri (103 ta), Andijon (25 ta), Asaka va Shahrixon (16 ta) va Oltinko'l (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Ulug'nor (4 ta), Jalaquduq va Bo'z (5 ta) hamda Paxtaobod (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 147 tasi qo'shma korxonalar, 120 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon Viloyati	267	100
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	15	5,6
Andijon	25	9,4
Baliqchi	10	3,7
Bo'z	5	1,9
Buloqboshi	14	5,2
Jalolquduq	5	1,9
Izboskan	8	3,0
Ulug'nor	4	1,5
Qo'rg'on tepa	9	3,4
Asaka	16	6,0
Marhamat	12	4,5
Shahrixon	16	6,0
Paxtaobod	6	2,2
Xo'jaobod	8	3,0
Andijon sh.	103	38,6
Xonobod sh.	11	4,1



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar - iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 51 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (20 ta yoki jamiidagi ulushi 39,2 %), Andijon (6 ta yoki 11,8 %) va Oltinko'l tumanlari (4 ta yoki 7,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z, Qo'rg'ontepa, Ulug'nor va Paxtaobod tumanlari (1 tadan yoki 1,9 %), hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-iyul oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Qirg'iziston Respublikasi - 12 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 8 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Koreya Respublikasi - 3 ta, Hindiston Respublikasi 3 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 2 ta, Italiya Respublikasi - 2 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida - 2 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil yanvar-iyul oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (24 ta ёки 47,1 %), savdo (7 ta ёки 13,7 %), qurilish (9 ta ёки 17,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5 ta ёки 9,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 ta ёки 2,1 %), boshqa faoliyat turlari (2 ta ёки 3,9 %) va axborot va aloqada (3 ta ёки 5,9 %) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 25788 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1 avgust holatiga qaraganda 17,8 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni, 9081 tasi (35,2 %) Andijon shahri, 2477 tasi (9,6 %) Asaka, 1796 tasi (7,0 %) Andijon, 1634 tasi (6,3 %) Shahrixon, 1381 tasi (5,4 %) Oltinko'l, 1212 tasi (4,7 %) Izboskan, 1188 tasi (4,6 %) Marhamat, 1162 tasi (4,5 %) Qo'rg'ontepa, 1151 tasi (4,5 %) Baliqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25788 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8064 tasi (31,3 %) - savdo, 6349 tasi (24,6 %) - sanoat, 2693 tasi (10,4 %) - qurilish, 1882 tasi (7,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1420 tasi (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1190 tasi



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

(4,6%) - tashish va saqlash, 558 tasi (2,2 %) – axborot va aloqa sohasi, 622 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 3010 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 3602 tada kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1545 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (1096 ta), Asaka (316 ta), Shahrixon (285 ta), Andijon (256 ta), Izboskan (214 ta), Qo'rg'ontepa (194 ta), Marhamat (184 ta) va Oltinko'l (180 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Xonobod shahri (67 ta), Bo'z (76 ta) hamda Ulug'nor (46 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1420 ta), sanoatda (1030 ta), qurilishda (416 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (146 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (71 ta), axborot va aloqada (62 ta) hamda tashish va saqlashda (131 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 697 tani tashkil etib, ulardan 672 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 80,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,2 % yoki 304 tasi sanoat, 19,4 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,1 % yoki 81 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,7 % yoki 72 tasi savdo, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 1,8 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 8 tasi qurilish, 0,7 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 7,9 % yoki 53 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

2019-yilning yanvar-iyul oylaridayangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	114	100
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	3	2,6
Andijon	9	7,9
Baliqchi	5	4,4
Bo'z	9	7,9
Buloqboshi	5	4,4
Jalolquduq	0	0
Izboskan	13	11,4
Ulug'nor	0	0
Qo'rg'ontepa	8	7,0
Asaka	11	9,6
Marhamat	4	3,5
Shahrixon	12	10,5
Paxtaobod	0	0
Xo'jaobod	0	0
Andijon sh.	31	27,2
Xonobod sh.	4	3,5



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

2019-yil yanvar-iyul oylarida 114 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 41 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Andijon shahri (31 ta), Izboskan (13 ta), Shahrixon (12 ta), Asaka (11 ta), Andijon va Bo'z (9 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Xonobod shahri va Marhamat (4 ta), Oltinko'l (3 ta), Baliqchi hamda Buloqboshi (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 55,3 % yoki 63 tasi sanoat, 17,5 % yoki 20 tasi savdo, 10,5 % yoki 12 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,9 % yoki 9 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 2 tasi qurilish, 2,6 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 2,6 % yoki 3 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI (2019-yil 1-avgust holatiga)

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:74-228-29-74